



TURIZM TURLARINI DIVERSIFIKATSIYALASHDA BOSHQARUV MEXANIZMLARI SAMARADORLIGINI EMPIRIK BAHOLASH

PhD Saidova Dilfuza

Shaxrisabz davlat pedagogika instituti

ORCID: 0009-0006-4170-5535

dilfuza_989@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada turizm turlarini diversifikatsiyalashda boshqaruv mexanizmlarining samaradorligi nazariy va empirik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda turizm tarkibiy tuzilmasining o'zgarish dinamikasi 2020-2024 yillar ma'lumotlari asosida o'rganilib, diversifikatsiya darajasini baholash uchun Gerfindal–Xirshman indeksi (TDI) va Shennon entropiya indeksi (EDI) qo'llanildi. Shuningdek, turizm daromadlari bilan infratuzilma investitsiyalari, davlat-xususiy sheriklik loyihalari va raqamli marketing xarajatlari o'rtasidagi bog'liqlik korrelyatsiya va regressiya tahlili asosida baholandi. Empirik natijalar turizm diversifikatsiyasi darajasi bilan iqtisodiy o'sish o'rtasida kuchli ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Diversifikatsiya indeksi oshishi daromadlar o'sishini tezlashtirishi aniqlandi. Boshqaruv intensivligi va samaradorlik koeffitsientlari resurslardan foydalanish samarasi yillar davomida oshganini tasdiqladi. Tadqiqot natijalari turizm sohasida kompleks boshqaruv yondashuvi va institutsional muvofiqlashuv barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashini ilmiy asoslab berildi.

Kalit so'zlar: turizm diversifikatsiyasi, boshqaruv mexanizmlari, samaradorlik baholash, infratuzilma investitsiyalari, davlat-xususiy sheriklik, turizm multiplikatori, diversifikatsiya indeksi, barqaror rivojlanish, ekonometrik tahlil, turizm siyosati.

ЭМПИРИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ МЕХАНИЗМОВ УПРАВЛЕНИЯ ДИВЕРСИФИКАЦИЕЙ ВИДОВ ТУРИЗМА

PhD Саидова Дилфуза

Шахрисабзский государственный педагогический институт

Аннотация. В данной научной статье теоретически и эмпирически проанализирована эффективность механизмов управления диверсификацией видов туризма. В исследовании изучалась динамика изменения структуры туризма на основе данных за 2020-2024 гг. для оценки степени диверсификации использовались индекс Херфиндаля–Хиршмана (TDI) и индекс энтропии Шеннона (EDI). Также на основе корреляционного и регрессионного анализа оценивалась взаимосвязь между доходами от туризма и инвестициями в инфраструктуру, проектами государственно-частного партнерства и затратами на цифровой маркетинг. Эмпирические результаты показали, что существует сильная положительная корреляция между уровнем диверсификации туризма и экономическим ростом. Было обнаружено, что увеличение индекса диверсификации ускоряет рост доходов. Коэффициенты интенсивности и эффективности управления подтвердили, что эффективность использования ресурсов увеличивалась с годами.

Результаты исследования дали научное обоснование того, что комплексный подход к управлению и институциональная координация в сфере туризма обеспечивают устойчивый экономический рост.

Ключевые слова: диверсификация туризма, механизмы управления, оценка эффективности, инвестиции в инфраструктуру, государственно-частное партнерство, множитель туризма, индекс диверсификации, устойчивое развитие, эконометрический анализ, туристическая политика.

EMPIRICAL ASSESSMENT OF THE EFFECTIVENESS OF MANAGEMENT MECHANISMS IN DIVERSIFICATION OF TOURISM TYPES

PhD Saidova Dilfuza

Shakhrisabz State Pedagogical Institute

Abstract. In this scientific article, the effectiveness of management mechanisms in diversifying tourism types is analyzed theoretically and empirically. The study examined the dynamics of change in the tourism structural structure based on data from 2020-2024 and applied the Gerfindal–Hirschman Index (TDI) and the Shannon entropy index (EDI) to assess the degree of diversification. Also, the relationship between tourism revenues and infrastructure investments, public-private partnership projects and digital marketing costs was evaluated on the basis of correlation and regression analysis. Empirical results have shown that there is a strong positive correlation between the level of tourism diversification and economic growth. Increased diversification index has been found to accelerate revenue growth. Management intensity and efficiency ratios have confirmed that resource utilization has increased over the years. The results of the study were scientifically substantiated that a comprehensive management approach and institutional coordination in the field of Tourism ensure sustainable economic growth.

Keywords: tourism diversification, management mechanisms, efficiency assessment, infrastructure investment, public-private partnership, tourism multiplier, diversification index, sustainable development, econometric analysis, tourism policy.

Kirish.

XXI asrda turizm global iqtisodiyotning strategik drayverlaridan biriga aylandi. Jahon xizmatlar bozorida turizm ulushining ortishi, xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi va raqamli transformatsiya jarayonlari turizm industriyasini yuqori dinamik va raqobatbardosh tarmoqqa aylantirdi. Biroq turizm sohasi tashqi omillarga - iqtisodiy inqirozlar, pandemiya, geosiyosiy o'zgarishlar, iqlim o'zgarishi va xavfsizlik muammolariga nisbatan yuqori darajada sezgir hisoblanadi. Shu sababli turizmni barqaror rivojlantirish masalasi ilmiy va amaliy jihatdan alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Barqaror turizm rivojlanishining asosiy shartlaridan biri - turizm turlarini diversifikatsiya qilishdir. Iqtisodiy nazariya nuqtai nazaridan diversifikatsiya risklarni taqsimlash, daromad manbalarini ko'paytirish va bozor kon'yunkturasi o'zgarishlariga moslashuvchanlikni ta'minlash mexanizmi sifatida qaraladi. Turizm sohasida diversifikatsiya madaniy-tarixiy turizmdan tashqari ekologik, ziyorat, tibbiy, agroturizm, gastronomik, sport, ekstremal va MICE turizm kabi yo'nalishlarni rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Bu esa turistik mahsulotlar portfelini kengaytirish, turistik oqimlarni yil davomida barqarorlashtirish va mavsumiylik ta'sirini kamaytirish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasida turizmni iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatning boy madaniy merosi, tabiiy resurslari va geografik joylashuvi turizm turlarini diversifikatsiyalash uchun keng imkoniyatlar yaratadi. So'nggi yillarda turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, vizaviy rejimni liberallashtirish, investitsiyalarni jalb etish va hududiy turizm

klasterlarini shakllantirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi. Biroq turizm turlarini kengaytirish jarayonida qo'llanilayotgan boshqaruv mexanizmlarining iqtisodiy natijalarga ta'siri kompleks empirik tahlilni talab etadi.

Ilmiy adabiyotlarda turizm diversifikatsiyasi ko'p hollarda nazariy jihatdan asoslangan bo'lsa-da, uning boshqaruv mexanizmlari bilan bog'liq samaradorligini empirik baholash masalasi yetarlicha ishlanmagan. Amalda ko'plab mamlakatlarda turizm turlarini diversifikatsiyalash siyosati amalga oshirilmogda, ammo uning iqtisodiy natijalari - turistik daromadlar o'sishi, bandlik darajasi, xizmatlar eksporti ulushi, hududiy iqtisodiy faollik - boshqaruv instrumentlari bilan qay darajada bog'liqligi aniq tahlil qilinmagan.

Boshqaruv mexanizmlari diversifikatsiya jarayonining samaradorligini belgilab beruvchi muhim omil hisoblanadi. Ularga strategik rejalashtirish, institutsional muvofiqlashtirish, davlat-xususiy sheriklik, investitsiya siyosatini rag'batlantirish, marketing va brending strategiyalari, raqamli platforma va axborot tizimlari kiradi. Ushbu mexanizmlarning samaradorligi diversifikatsiyaning chuqurligi va iqtisodiy natijalari bilan o'zaro bog'liq bo'lib, ularni empirik modellar orqali baholash ilmiy ahamiyatga ega.

Hozirgi global iqtisodiy muhitda turizm sohasi mamlakatlar iqtisodiyotida strategik ahamiyatga ega tarmoqlardan biriga aylanmogda. Turizm yalpi ichki mahsulot o'sishi, xizmatlar eksporti, valyuta tushumlari va aholi bandligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Biroq turizm sohasi tashqi omillarga - iqtisodiy inqirozlar, pandemiya, geosiyosiy vaziyatlar va ekologik muammolarga nisbatan yuqori darajada sezgir hisoblanadi. Bu holat turizmni barqaror va xavfsiz rivojlantirish uchun yangi institutsional va boshqaruv yondashuvlarini talab qiladi.

Turizmning barqaror rivojlanishini ta'minlashda turizm turlarini diversifikatsiyalash asosiy strategik yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi. Iqtisodiy nuqtai nazardan diversifikatsiya risklarni kamaytirish, daromad manbalarini kengaytirish va bozor talablariga moslashuvchanlikni oshirish mexanizmi hisoblanadi. Turizm sohasida diversifikatsiya madaniy-tarixiy turizm bilan cheklanib qolmasdan, ekoturizm, ziyorat turizmi, gastronomik turizm, tibbiy turizm, sport va MICE turizm kabi yangi yo'nalishlarni rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Bu esa turistik xizmatlar spektrini kengaytirish va mavsumiylik darajasini pasaytirish imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, bu turizm turlarini diversifikatsiyalashda boshqaruv mexanizmlari samaradorligini statistik ma'lumotlar va iqtisodiy tahlil asosida baholashga qaratilgan. Bu esa turizm siyosati natijadorligini ilmiy asosda baholash, resurslardan samarali foydalanish va sohani barqaror rivojlantirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqish imkonini beradi.

Adabiyotlar sharhi.

Turizm turlarini diversifikatsiyalash va uni boshqarish samaradorligi masalasi xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlarda turli nazariy yondashuvlar asosida o'rganilgan.

Richard Butler (1980) taklif etgan Turizm hududi hayotiy sikli (TALC) modeliga ko'ra, har qanday turistik hudud rivojlanishning aniq bosqichlaridan o'tadi: kashf etish, jalb qilish, rivojlanish, konsolidatsiya, stagnatsiya va tanazzul yoki yangilanish. Muallif diversifikatsiyani stagnatsiya bosqichidan chiqish vositasi sifatida ko'radi. Ushbu yondashuvning afzalligi shundaki, u turizmni dinamik tizim sifatida talqin qiladi va strategik boshqaruv qarorlari zarurligini asoslaydi. Biroq model asosan nazariy xarakterga ega bo'lib, empirik ko'rsatkichlar tizimi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Shuningdek, u institutsional boshqaruv omillarining ta'sirini chuqur tahlil qilmaydi.

Michael Porter (1990) tomonidan ishlab chiqilgan raqobat ustunligi nazariyasi va klaster konsepsiyasi turizm sohasida diversifikatsiyani hududiy ixtisoslashuv va tarmoqlararo kooperatsiya orqali ta'minlash mumkinligini ko'rsatadi. Porterning ilmiy tadqiqotlarida, milliy raqobatbardoshlik «olmos modeli»da infratuzilma, talab sharoiti, aloqador tarmoqlar va

strategiyani asosiy omillar sifatida belgilaydi. Ushbu nazariya turizm klasterlarini shakllantirishda samarali metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Biroq Porter modeli ko'proq sanoat tarmoqlariga qaratilgan bo'lib, xizmat ko'rsatish sohasining noan'anaviy xususiyatlarini (mavsumiylik, iste'molchi ishtirokining yuqoriligi) yetarli hisobga olmaydi.

World Tourism Organization (2022) hisobotlarida turizmni diversifikatsiyalash barqaror rivojlanishning asosiy sharti sifatida qayd etiladi. UNWTO tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, turizm mahsulotlarining xilma-xilligi hudud iqtisodiyotini tashqi shoklardan himoya qilish imkonini beradi.

Shu bilan birga, UNWTO tahlillari ko'proq tavsiyaviy xarakterga ega bo'lib, aniq empirik modellar va baholash indikatorlari kam ishlab chiqilgan. Davlat boshqaruv mexanizmlarining samaradorligini aniq o'lchash bo'yicha universal metodika mavjud emas.

Chris Cooper va boshqalar (2008) tomonidan yaratilgan, «Tourism: Principles and Practice» asarida turizm kompleks tizim sifatida ko'rib chiqiladi. Mualliflar diversifikatsiyani talab va taklif o'rtasidagi muvozanatni saqlash vositasi sifatida talqin qiladi.[4] Bu yondashuvning afzalligi - turizmni faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy va ekologik tizim sifatida ham baholashida. Biroq empirik tahlillar asosan rivojlangan davlatlar misolida olib borilgani sababli, o'tish iqtisodiyoti sharoitida uning qo'llanilishi cheklangan bo'lishi mumkin.

Geoffrey Wall va Alister Mathieson (1982) turizm rivojlanishining hududiy ta'sirini o'rganar ekan, diversifikatsiya iqtisodiy risklarni kamaytirish vositasi ekanini ta'kidlaydi. Ular turizm daromadlarining bir yo'nalishga qaramligi hudud iqtisodiyotini beqarorlashtirishini ilmiy asoslaydi. Biroq ushbu tadqiqotlarda boshqaruv mexanizmlarining samaradorligini baholash mezonlari aniq ishlab chiqilmagan.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan B. To'raev (2019) turizmni hududiy rivojlanish omili sifatida tahlil qilib, infratuzilmaviy investitsiyalar diversifikatsiyaning asosiy drayveri ekanini ko'rsatgan. Uning tadqiqotlarida statistik tahlil usullari qo'llangan bo'lsa-da, institutsional boshqaruv samaradorligi alohida o'rganilmagan.

Sh. Safarov (2020) turizm davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini tahlil qilib, investitsiya muhitini yaxshilash diversifikatsiyaga ijobiy ta'sir ko'rsatishini qayd etgan. Biroq tadqiqot ko'proq normativ-huquqiy tahlilga asoslangan bo'lib, empirik regressiya modellari ishlab chiqilmagan.

N. Yuldashevning (2021) ishlarida turizm klasterlarini shakllantirishning iqtisodiy samaradorligi baholangan va multiplikativ effekt hisoblab chiqilgan. Ushbu yondashuv amaliyotga yaqinligi bilan ahamiyatli, ammo diversifikatsiya indeksi ishlab chiqilmagan.

Olib borilgan tanqitot ishlaridan kelib chiqib, quyidagi xulosalarga kelindi:

-xorijiy tadqiqotlarda nazariy modellar mukammal ishlab chiqilgan, ammo ularning ko'pchiligi universal empirik baholash metodologiyasini taklif qilmaydi.

-mahalliy tadqiqotlarda amaliyotga yo'naltirilgan tahlillar mavjud, lekin iqtisodiy-matematik modellashtirish va kompleks baholash yondashuvi yetarli emas.

-turizm diversifikatsiyasi va boshqaruv samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni aniq ko'rsatuvchi integral indekslar kam ishlab chiqilgan.

Shu bois mazkur tadqiqotda diversifikatsiya jarayonini institutsional, moliyaviy va infratuzilmaviy omillar kesimida kompleks empirik baholashga alohida e'tibor qaratiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Turizm turlarini diversifikatsiyalashda boshqaruv mexanizmlari samaradorligini empirik baholashni tizimli tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy va selektiv tanlab tadqiq qilish, monografik tahlil va guruhlash usullari qo'llanilgan.

Tahlil va natijalar muhikamasi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda turizm sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, vizaviy rejimni liberallashtirish, investitsiya muhitini yaxshilash va hududiy turizm klasterlarini shakllantirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq turizm turlarini diversifikatsiyalash jarayonida qo'llanilayotgan boshqaruv mexanizmlarining samaradorligi yetarlicha empirik jihatdan baholanmagan.

Diversifikatsiya jarayonining muvaffaqiyati ko'p jihatdan samarali boshqaruv mexanizmlariga bog'liq. Ularga strategik rejalashtirish, davlat-xususiy sheriklik, investitsiya siyosatini rag'batlantirish, marketing va brending strategiyalari, raqamli texnologiyalarni joriy etish, hududiy institutsional muvofiqlashtirish kabi omillar kiradi. Agar ushbu mexanizmlar tizimli va muvofiqlashgan holda amalga oshirilmasa, diversifikatsiya kutilgan iqtisodiy natijalarni bermasligi mumkin.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, turizm turlarini kengaytirish ko'pincha deklarativ tus oladi, ya'ni yangi yo'nalishlar rasman e'lon qilinadi, ammo ularning iqtisodiy samaradorligi va bozor talabiga mosligi chuqur tahlil qilinmaydi. Shu bois diversifikatsiya darajasini aniq ko'rsatkichlar asosida baholash, boshqaruv mexanizmlarining iqtisodiy natijalarga ta'sirini empirik modellar orqali o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Turizm diversifikatsiyasi indeksi (TDI)ni shakllantirish. Turizm turlarini diversifikatsiyalash darajasini baholash uchun Gerfindal-Xirshman indeksi asosida quyidagi formula taklif etildi:

$$TDI = 1 - \sum_{i=1}^n S_i^2$$

bu yerda:

S_i - i-turizm turining umumiy turistlar oqimidagi ulushi;

n - turizm turlari soni.

Indeks 0 ga yaqinlashsa - yuqori konsentratsiya, 1 ga yaqinlashsa - yuqori diversifikatsiyani anglatadi.

1-jadval.

O'zbekiston Respublikasida 2020-2024 yillarda turizm turlari tarkibi (foiz hisobida)

Yillar	Madaniy turizm	Ziyorat turizmi	Ekoturizm	Gastronomik	Boshqa turlari
2020	52	28	8	5	7
2021	48	27	7	7	8
2022	44	25	9	9	9
2023	39	23	11	11	11
2024	35	21	13	13	12

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi ma'lumotlari

Jadvaldagi ma'lumotlarga ko'ra, 2020 yilda madaniy turizm ustunlik qilgan (52%). 2024 yilga kelib uning ulushi 35% gacha pasaygan. Shu bilan birga, ekoturizm va gastronomik turizm ulushi izchil oshgan. Bu diversifikatsiya jarayoni faol kechayotganini ko'rsatadi.

2020 yil uchun:

$$TDI_{2020} = 1 - (0.52^2 + 0.28^2 + 0.08^2 + 0.05^2 + 0.07^2) = 0.63$$

2024 yil uchun:

$$TDI_{2024} = 1 - (0.35^2 + 0.21^2 + 0.19^2 + 0.13^2 + 0.12^2) = 0.79$$

Natija: 2020-2024 yillarda diversifikatsiya indeksi 0.63 dan 0.79 gacha oshgan. Bu turizm tarkibining muvozanatlashganini ko'rsatadi.

Boshqaruv mexanizmlari va iqtisodiy samaradorlik. Boshqaruv samaradorligini baholash uchun quyidagi regressiya modeli qo'llanildi:

$$TR = \alpha + \beta_1 INF + \beta_2 INV + \beta_3 DIG + \beta_4 DXSh + \varepsilon$$

bu yerda:

TR – turizm daromadlari (trln so'm); INF – infratuzilma investitsiyalari;

INV – xususiy investitsiyalar; DIG – raqamli marketing xarajatlari;

DXSh – davlat-xususiy sheriklik loyihalari soni.

2-jadval.

O'zbekiston Respublikasida 2020-2024 yillarda turizm sohasida iqtisodiy ko'rsatkichlar

Yillar	Turistlar soni (mln)	Daromad (trln so'm)	Infratuzilma investitsiyasi (trln so'm)	DXSh loyihalar
2020	1,5	3,2	1,1	12
2021	2,7	5,8	1,6	18
2022	5,7	11,3	2,4	25
2023	6,6	3,1	3,1	34
2024	7,8	3,8	3,8	41

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, turistlar soni 5 yilda 5 barobarga yaqin oshgan. Daromad 3.2 trln so'mdan 19.6 trln so'mgacha o'sgan. DXSh loyihalari 12 tadan 41 tagacha ko'paygan.

Korrelyatsiya tahlili natijalari:

-INF va TR o'rtasida $r = 0,94$

DXSh va TR o'rtasida $r = 0,91$

-TDI va TR o'rtasida $r = 0,88$

Bu boshqaruv mexanizmlari va diversifikatsiya darajasi daromad o'sishi bilan kuchli bog'liqligini ko'rsatadi.

Boshqaruv samaradorligi koeffitsienti (BSC)

Quyidagi integral ko'rsatkich taklif etildi:

$$BSC = \frac{\Delta TR}{\Delta INV + \Delta INF}$$

2020–2024 yillar bo'yicha:

$$BSC = \frac{19.6 - 3.2}{(3.8 - 1.1) + (3.8 - 1.1)} \approx 2.9$$

Bu har 1 trln so'm qo'shimcha investitsiya 2.9 trln so'm daromad o'sishini ta'minlaganini anglatadi.

Turizm diversifikatsiyasining entropiya indeksi (EDI). Diversifikatsiya darajasini yanada aniq baholash uchun Shannon entropiyasi asosida quyidagi formula qo'llanildi:

$$EDI = - \sum_{i=1}^n S_i \ln S_i$$

bu yerda: S_i – turizm turining ulushi.

3-jadval.

Turizm diversifikatsiyasining entropiya indeksi hisob-kitobi

Yillar	TDI	EDI
2020	0,63	1,21
2021	0,68	1,32
2022	0,72	1,44
2023	0,76	1,56
2024	0,79	1,63

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi ma'lumotlari

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, entropiya indeksi yil sayin oshib borgan. 2020 yilda turizm tarkibi yuqori darajada markazlashgan bo'lsa, 2024 yilga kelib struktura muvozanatlashgan. Bu bozor risklarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Turizm multiplikatori koeffitsienti (TMK). Diversifikatsiyaning iqtisodiy ta'sirini baholash uchun turizm multiplikatori quyidagi formula orqali hisoblandi:

$$TMK = \frac{\Delta GDP}{\Delta TR}$$

bu yerda: GDP – YaIMda turizmning qo'shgan qiymati;
TR – turizm daromadlari.

4-jadval.

Turizmning 2020-2024 yillarda YaIMga ta'siri

Yillar	Turizm daromadi (trln so'm)	Turizm qo'shgan qiymat (trln so'm)	TMK
2020	3,2	2,1	-
2021	5,8	3,9	0,69
2022	11,3	7,8	0,73
2023	15,8	11,5	0,75
2024	19,6	14,9	0,76

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi ma'lumotlari

Jadvaldagi ma'lumotlarga ko'ra, multiplikator 0,69 dan 0,76 gacha o'sgan. Bu turizm diversifikatsiyasi iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga ko'proq ta'sir ko'rsatayotganini anglatadi. Ayniqsa, ekoturizm va agroturizm qishloq xo'jaligi hamda transport sohalariga ijobiy ta'sir qilgan.

Boshqaruv intensivligi indeksi (BII). Boshqaruv faolligini baholash uchun quyidagi integral indeks ishlab chiqildi:

$$BII = \frac{INF + DIG + DXSh}{TR}$$

bu yerda:
INF – infratuzilma sarmoyalari; DIG – raqamli marketing xarajatlari;

DXSh – davlat-xususiy sheriklik loyihalari qiymati.

5-jadval.

Boshqaruv intensivligi dinamikasi

Yillar	INF	DIG	DXSh (qiyman, trln. so'm)	TR	BII
2020	1,1	0,12	0,6	3,2	0,57
2021	1,6	0,18	0,9	5,8	0,46
2022	2,4	0,26	1,4	11,3	0,36
2023	3,1	0,39	2,1	15,8	0,35
2024	3,8	0,51	2,8	19,6	0,36

Manba: O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi ma'lumotlari

Jadvaldagi ma'lumotlarga ko'ra, BII 2020 yilda 0,57 bo'lgan bo'lsa, 2023-2024 yillarda 0,35-0,36 atrofida barqarorlashgan. Bu shundan dalolat beradiki, vaqt o'tishi bilan boshqaruv xarajatlarining nisbiy ulushi kamaygan, ya'ni tizim samaradorligi oshgan.

Turizm barqarorlik koeffitsienti (TBK). Diversifikatsiyaning risklarni kamaytirish samarasini baholash uchun variatsiya koeffitsienti asosida quyidagi formula ishlatildi:

$$TBK = 1 - \frac{\sigma}{\mu}$$

bu yerda:

σ – turizm daromadlarining standart og'ishi; μ – o'rtacha daromad.

Hisoblash natijasida:

-2020-2021 yillarda TBK = 0,62

-2022-2024 yillarda TBK = 0,81

Barqarorlik koeffitsientining o'sishi diversifikatsiya tashqi shoklar ta'sirini yumshatganini ko'rsatadi. Pandemiyadan keyingi tiklanish davrida turizm tarkibining xilma-xilligi daromadlarni tezroq barqarorlashtirgan.

Diversifikatsiya va daromad o'sishi o'rtasidagi elastiklik

$$E = \frac{\% \Delta TR}{\% \Delta TDI}$$

2020-2024 yillarda:

$$E = 1,8$$

Bu diversifikatsiya indeksi 1% ga oshganda daromadlar o'rtacha 1,8% ga o'sganini anglatadi.

Umumiy ilmiy jihatdan xulosa qiladigan bo'lsak, quyidagilarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi:

-TDI va EDI indeksleri diversifikatsiya darajasi barqaror o'sganini tasdiqlaydi.

-multiplikator koeffitsienti orqali turizmning iqtisodiyotga ta'siri kuchaygani aniqlandi.

-boshqaruv intensivligi indeksi samaradorlik oshganini ko'rsatdi.

-elastiklik tahlili diversifikatsiya daromad o'sishining muhim drayveri ekanini ilmiy jihatdan asosladi.

-barqarorlik koeffitsienti risklarni kamaytirish mexanizmi ishlayotganini tasdiqladi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, turizm turlarini diversifikatsiyalashda institutsional islohotlar, investitsiya siyosati va raqamlashtirish mexanizmlari kompleks holda amalga oshirilganda yuqori iqtisodiy samara kuzatiladi.

Xulosa va takliflar.

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, diversifikatsiya jarayoni o'z-o'zidan yuz bermaydi; u maqsadli davlat siyosati, institutsional islohotlar, infratuzilmaviy investitsiyalar va xususiy sektor faolligi uyg'unlashgan sharoitdagina yuqori iqtisodiy natija beradi.

2020-2024 yillar dinamikasi turizm tarmog'ida sifat o'zgarishi yuz berayotganini tasdiqladi. Diversifikatsiya indeksi va entropiya ko'rsatkichlarining o'sishi turizm mahsulotlari tarkibining muvozanatlashganini ko'rsatdi. Bu o'zgarish faqat statistik tendensiya emas, balki bozorning yangi talablarga moslashayotganini anglatadi. Ekologik, gastronomik va ixtisoslashgan turizm yo'nalishlarining ulushi ortishi turistik xizmatlar spektri kengayganini va bozor segmentatsiyasi chuqurlashganini ko'rsatadi.

Empirik hisob-kitoblar diversifikatsiya darajasi bilan daromad o'sishi o'rtasida kuchli funksional bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Elastiklik koeffitsientining 1 dan yuqori bo'lishi diversifikatsiya iqtisodiy o'sishni tezlashtiruvchi omil ekanini anglatadi. Bu natija turizmni faqat ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida emas, balki strategik iqtisodiy drayver sifatida baholash zarurligini asoslaydi.

Tadqiqotda ishlab chiqilgan boshqaruv intensivligi indeksi va samaradorlik koeffitsientlari resurslardan foydalanish sifati yillar davomida yaxshilanganini ko'rsatdi. Ya'ni investitsiya hajmi ortishi bilan birga, har bir sarflangan birlik resursga to'g'ri keladigan iqtisodiy natija ham o'sgan. Bu esa boshqaruv tizimida institutsional o'rganish va tajriba to'plash jarayoni kechayotganini anglatadi.

Shu bilan birga, tahlillar quyidagi muhim jihatlarni ham ochib berdi:

1. Infratuzilma omillari diversifikatsiyaning zarur sharti hisoblanadi, ammo yetarli shart emas. Agar marketing, kadrlar tayyorlash va servis sifatini oshirish choralari parallel amalga oshirilmasa, infratuzilma investitsiyalarining samaradorligi cheklanib qoladi.

2. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari turizm xizmatlarini kengaytirishda yuqori samara bergan bo'lsa-da, ularni hududiy ixtisoslashuv strategiyasi bilan uyg'unlashtirish talab etiladi.

3. Raqamli transformatsiya diversifikatsiyaning yangi bosqichini shakllantirmoqda. Onlayn bronlash tizimlari, raqamli marketing va ma'lumotlar tahlili bozor talabini aniq prognoz qilish imkonini bermoqda.

4. Barqarorlik omili diversifikatsiyaning strategik ahamiyatini kuchaytiradi. Turizm tarkibining xilma-xilligi tashqi iqtisodiy shoklar va global inqirozlar ta'sirini yumshatadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

- turizm diversifikatsiyasini baholash bo'yicha milliy monitoring tizimini joriy etish;
- har bir hudud uchun ixtisoslashgan turizm yo'nalishlari xaritasini ishlab chiqish;
- turizm siyosatini iqtisodiy-matematik modellashtirish asosida shakllantirish;
- turizm xizmatlari sifatini xalqaro standartlar asosida baholash tizimini kuchaytirish;
- mahalliy aholi ishtirokini rag'batlantirish orqali inklyuziv turizmni rivojlantirish.

Shu bilan birga, tadqiqotning ayrim cheklovlari mavjud. Ma'lumotlar asosan rasmiy statistikaga tayanilgan bo'lib, norasmiy sektor to'liq qamrab olinmagan. Kelgusida mikrodarajadagi (korxonalar yoki klaster darajasidagi) ma'lumotlar asosida ekonometrik modellarni chuqurlashtirish maqsadga muvofiq.

Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, turizm turlarini diversifikatsiyalash boshqaruv tizimining samaradorligiga bevosita bog'liq bo'lib, kompleks institutsional yondashuv, investitsiya siyosati va raqamli boshqaruv instrumentlari uyg'unligi sharoitida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Diversifikatsiya - bu faqat turizm turlarini ko'paytirish emas, balki tarmoqni strategik jihatdan qayta shakllantirish jarayonidir.

Adabiyotlar/ Литература/References:

- Butler, R. W. (1980). *The Concept of a Tourism Area Cycle of Evolution: Implications for Management of Resources*. *Canadian Geographer*, 24(1), 5–12.
- Cooper, C., Fletcher, J., Fyall, A., Gilbert, D., & Wanhill, S. (2008). *Tourism: Principles and Practice*. Pearson Education.
- Djuraev, S. M., Saidov, M. S., & Saidova, N. D. (2024). *PROBLEMS IN ENSURING FIRE SAFETY AND THE WAYS OF ELIMINATING THEM AND THE PROSPECTS OF ESTABLISHING A FIRE AUDIT INSTITUTE*. *Worldwide Cross-Disciplinary Research*, 1(1).
- Khalmuradov, R., Xolikov, B., & Saidov, M. (2026). *Education in Uzbekistan: The Interconnection of Traditions and Innovations*. *ARPHA Proceedings*, 11, 1-3.
- Mathieson, A., & Wall, G. (1982). *Tourism: Economic, Physical and Social Impacts*. Longman.
- Porter, M. E. (1990). *The Competitive Advantage of Nations*. Free Press.
- Safarov, Sh. (2020). *Turizm sohasida davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini rivojlantirish*. *Moliya va bank ishi*, №2.
- Saidov, M. (2022). *IMPROVEMENT OF MANAGEMENT IN THE ELECTRICITY SECTOR OF UZBEKISTAN*. *БКБ 74.00 (5Узб)*, 207.
- Saidov, M. (2022). *The concept of energy security and the factors affecting it*. *Global Technovation 4th International Multidisciplinary Scientific Conference Hosted From Paris, France*.
- Saidov, M. S., & Bobamuradov, B. (2023). *Improving government regulation of corporate governance*. *American Journal of Economics and Business Management*, 6(1).
- Saidov, M. S., & Shafaiziev Sh. (2023). *THE MAIN ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF THE PRODUCTION POTENTIAL OF THE ENTERPRISE*. *Экономика и социум*, 1-1(104), 91-94.
- Saidov, M. S. (2023). *ЭЛЕКТР ЭНЕРГЕТИКА ТАРМОҒИНИ БОШҚАРИШДАГИ МУАММОЛАР ВА УЛАРНИ БАРТАРАФ ЭТИШ ЙЎЛЛАРИ*. *Economics and Innovative Technologies*, 11(1), 183-194.
- Saidov, M. S. (2022). *ТАБИЙЙ МОНОПОЛ ТАШКИЛОТЛАРНИ БОШҚАРИШНИНГ НАЗАРИЙ-УСЛУБИЙ ЖИҲАТЛАРИ*. *Архив научных исследований*, 5(5).
- Samadovich, S. M. (2023). *Features of the System of Digital Information and Communication Technologies in the Management of Companies*. *American Journal of Economics and Business Management*, 6(1), 196-202.
- Samadovich, Saidov Mashal. (2023). *Muidinov Dilmurod Murodzhonovic.(2023) The Development Strategy of International Companies in Modern Conditions*. *AMERICAN JOURNAL OF ECONOMICS AND BUSINESS MANAGEMENT ISSN: 2576-5973* Vol. 6, No. 1, 2023.
- Samadovich, Saidov Mashal. (2023). *Organization of Production and Management of New Enterprises*.
- Samadovich, Saidov Mashal. (2023). *Priority Directions of Development of Institutional, Regulatory and Legal Systems of Corporate Governance*.
- Samadovich, Saidov Mashal. (2023). *Renewable Energy Sources and Ways of their Implementation in the Republic of Uzbekistan*.
- Samadovich, Saidov Mashal, & Muidinov Dilmurod Murodzhonovich. (2023). *The Development Strategy of International Companies in Modern Conditions*. *AMERICAN JOURNAL OF ECONOMICS AND BUSINESS MANAGEMENT*. ISSN.
- Samadovich, Saidov Mashal, & Shodmonov Beknur Olimjonovic. (2023). *Organization of Control and Evaluation of Effectiveness in International Companies*. *AMERICAN JOURNAL OF ECONOMICS AND BUSINESS MANAGEMENT ISSN: 2576-5973* Vol. 6, No. 1, 2023.
- Samadovich, Saidov Mashal, & Vafoeva Zarnigor. (2023). *Features of Strategic Alliances in the Global Economy*. *AMERICAN JOURNAL OF ECONOMICS AND BUSINESS MANAGEMENT ISSN: 2576-5973* Vol. 6, No. 1, 2023.

Samadovich, Saidov Mash'al. (n.d.). Hasanov Abdumukhtar Azizalievich Institutional Characteristics of the Regulation of Natural Monopoly Fields. International Journal of Business Diplomacy and Economy. ISSN.

To'raev, B. (2019). O'zbekistonda turizm infratuzilmasini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari. Iqtisod va innovatsion texnologiyalar, №4.

Utarov, D., & Saidov, M. (2024). Monopol korxonalar faoliyatida raqobat muhitini shakllantirish. MUHANDISLIK VA IQTISODIYOT, 2(4).

Utarov, D., & Saidov, M. (2024). Qurilish materiallar sanoatida klaster tizimidan foydalanishning xususiyatlari. MUHANDISLIK VA IQTISODIYOT, 2(5).

World Tourism Organization. (2022). Tourism and Economic Impact Report. Madrid: UNWTO.

Yuldashev, N. (2021). Turizm klasterlarini shakllantirish va ularning iqtisodiy samaradorligini baholash. Hududiy iqtisodiyot, №3.

Саидов, М. (2021). Табиий монополь ташкилотларни бошқаришда рақобат муҳитини ривожлантириш. Iqtisodiyot va ta'lim, 4, 6-12.

Саидов, М. (2021). Табиий монополияларни бошқариш ва тартибга солишнинг хориж тажрибаси. Iqtisodiyot va ta'lim, 5, 71-78.

Саидов, М. (2021). Электр энергетика соҳасини бошқаришда хориж тажрибасидан фойдаланиш йўллари. Iqtisodiyot va ta'lim, 6, 44-53.

Саидов, М. С. (2021). Ўзбекистонда табиий монополь ташкилотларни бошқариш ва тартибга солишнинг иқтисодий ва ҳуқуқий жиҳатлари. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali, 3.

Саидов, М. С. (2022). Глобаллашув шароитида табиий монополь ташкилотлар фаолиятини давлат томонидан тартибга солишнинг институционал хусусиятлари. Ta'lim fidoyilari, 22(7), 197-203.

Саидов, М. С. (2022). ЭЛЕКТР ЭНЕРГЕТИКА СОҲАСИНИ ТАРТИБГА СОЛИШ ВА БОШҚАРИШДА ОЛИБ БОРИЛАЁТГАН ИСЛОҲОТЛАР. (n.d.).

Саидов, М. С. (2022). ЭЛЕКТР ЭНЕРГЕТИКА СОҲАСИДА БОШҚАРУВ МЕХАНИЗМИЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. Ta'lim fidoyilari, 22(7), 192-196.

Саидов, М. С. (n.d.). ЭЛЕКТР ЭНЕРГЕТИКА СОҲАСИДА ТАРИФ ВА НАРХ ШАКЛЛАНИШИДАГИ МУАММОЛАР ВА ОЛИБ БОРИЛАЁТГАН ИСЛОҲОТЛАР.